

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA INSON HUQUQLARI HAQIDA.

- Hech kim rasmiy e‘lon qilinmagan qonun asosida hukm qilinishi, jazoga tortilishi, mol-mulkidan yoki biron-bir huquqidan mahrum etilishi mumkin emas.
- Hech kim ayni bir jinoyat uchun takroran hukm qilinishi mumkin emas.

SHU O‘RINDA SAVOL TUG‘ILISHI MUMKIN, O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNLARI RASMIY E‘LON QILINADIGAN MANBALARGA NIMALAR KIRADI?

Qonunchilikka muvofiq, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi”, “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik to‘plami”, “Xalq so‘zi” va “Narodnoe slovo” gazetalari, “O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi” O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari e‘lon qilinadigan rasmiy manbalardir.

SHUNINGDEK, NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLARNI E‘LON QILISHGA DOIR TALABLARGA QUYIDAGILAR KIRADI:

- Normativ-huquqiy hujjatning bayon tarzida rasmiy e‘lon qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.
- Normativ-huquqiy hujjat rasmiy e‘lon qilinganda uning barcha rekvizitlari ko‘rsatiladi.
- Vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ-huquqiy hujjatlari matnlarining elektron shakllari ularni qabul qilgan organlarning rasmiy veb-saytlarida normativ-huquqiy hujjat rasmiy e‘lon qilinganidan keyin bir kun ichida e‘lon qilinishi shart. Vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ-huquqiy hujjatlari matnlarining elektron shakllarini e‘lon qilish tartibi qonunchilikda belgilanadi.
- Normativ-huquqiy hujjatlarni norasmiy nashrlarda e‘lon qilishga, shuningdek ularni qonunchilikning elektron ma‘lumotnoma tizimlari orqali tarqatishga normativ-huquqiy hujjat rasmiy manbalarda ularning barcha rekvizitlari, ular e‘lon qilingan rasmiy nashrlar va ularning kuchga kirish sanasi ko‘rsatilgan holda e‘lon qilinganidan so‘ng yo‘l qo‘yiladi. Bunda rasmiy nashrlarda e‘lon qilingan normativ-

huquqiy hujjat matnining aniq takrorlanishi ta'minlanishi kerak.

- Normativ-huquqiy hujjatlarning e'lon qilinishi ular qo'llanilishining majburiy shartidir.

QAYSI DAVLAT ORGANI HUQUQIY AXBOROTNI TARQATISH VA UNDAN FOYDALANISHNI TA'MINLASH SOHASIDA VAKOLATLI HISOBLANADI?

- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash sohasidagi maxsus vakolatli davlat organidir.
- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi o'z vakolatlari doirasida normativ-huquqiy hujjatlarning rasmiy e'lon qilinishini amalga oshiradi;
- Normativ-huquqiy hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasida rasmiy e'lon qilish ular O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga kelib tushgan paytdan e'tiboran bir kun ichida "Normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy e'lon qilish" bo'limida amalga oshiriladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 30-moddasining ikkinchi qismi bir jinoyat uchun ikki marta javobgarlikka tortish mumkin emasligini belgilaydi. Ushbu qoidaning qonunda mustahkamlanganligi odillik prinsipining shartlaridan biridir. Ushbu norma orqali jinoiy javobgarlikning odilona bo'lishi ta'kidlangan. Bu o'rinda bir jinoyat uchun bir marta javobgarlikka tortish mezon bo'lib xizmat qiladi. Bunda jinoyat sodir etgan shaxsning holati, ilgari jinoiy javobgarlikka tortilganligi, uning sudlanganligi yoki oqlanganligi ahamiyatga ega emas. Ushbu va boshqa holatlarda uning mazkur qilmishi uchun qayta jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASINING 31-MODDASI

- Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega.
- Har kim yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlari sir saqlanishi huquqiga ega. Ushbu huquqning cheklanishiga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi.
- Har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega.
- Har kim uy-joy daxlsizligi huquqiga ega.
- Hech kim uy-joyga unda yashovchi shaxslarning xohishiga qarshi kirishi mumkin emas. Uy-joyga kirishga, shuningdek unda olib qo'yishni va ko'zdan kechirishni o'tkazishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda yo'l qo'yiladi. Uy-joyda tintuv o'tkazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo'l qo'yiladi.

Mazkur moddaning 1-qismi bilan belgilangan normaga ko'ra, Inson boshqa mavjudotlardan sha'ni, qadr-qimmatiga, obro'yiga egaligi bilan farq qiladi. Qadr-qimmat qadrlangandagina u o'zining hayotini munosib qura oladi. Shuning uchun insonning sha'ni, obro'si himoya qilinadi. Har bir kishi o'z hayotini o'zi xohlagancha tashkil qiladi. Bunda u boshqalarga zarar yetkazmasligi, qonun-qoidalar asosida yashashi, foydali mehnat bilan shug'ullanishi zarur. Insonlarning sha'ni, obro'siga zarar keltiruvchi har qanday harakat taqiqlanadi. Biror-bir harakat natijasida insonning sha'ni, obro'siga zarar yetsa, unga tegishli choralar ko'riladi.

Shuningdek 31-moddaning navbatdagi normalari bilan har kim yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlar sir saqlanishi huquqiga ega ekanligi, har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga ega ekanligi belgilanmoqda.

Keyingi yillarda telekommunikatsiya tarmoqlari va axborot texnologiyalari rivojlangani sari axborot va ma'lumotlarni uzatish, tarqatish jarayonlari osonlashdi va xalq ichida ommaviylashdi. Hozirgi kunda 30 milliondan ortiq yurtdoshlarimiz mobil aloqadan foydalanmoqdalar.

Bugun ijtimoiy tarmoq va internet saytlarida shaxsning shaxsiy va oilaviy siriga oid ma'lumotlari, ming afsuski, uning roziligisiz olinishi, tarqatilishiga guvoh bo'lyapmiz. Natijada ko'pchilik ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari o'z shaxsiy hayotiga, shaxsiga oid ma'lumotlarning tarqalishiga oid huquqbuzarlikdan jabr ko'rmoqdalar.

Bunday sharoitda fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari, yozishmalari va biometrik ma'lumotlarini saqlash va tarqatilishida tashqi ta'sirlardan himoya zarurati yuzaga kelmoqda. Shu nuqtai nazardan Konstitutsiyada daxlsizlik huquqi sifatida shaxsiy, oilaviy sir va ma'lumotlarning noqonuniy to'planishi va tarqalib ketishi cheklanishi muhim ahamiyatga egadir.

Mazkur modda 4-qismining ahamiyati shundaki, bir necha yillardan buyon jamiyatimizda "snos" bilan bog'liq muammo dolzarblik kasb etayotgandi. Bunga oqilona yechim sifatida hech kim sudning qarorisiz uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi hamda uy-joyidan mahrum etilgan mulkdorga uy-joyning hamda u ko'rgan zararlarning o'rni qonunda nazarda tutilgan hollarda oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi orqali ta'minlanishi ham mustahkamlandi.

Surxondaryo viloyat sudi jinoyat

ishlari bo'yicha Oltinsoy

tuman sudining sudya yordamchisi

N.Sovatov.